

XORAZMSHOH ANUSHTEGIN SULOLASI HUKMDORLARI SIYOSIY FAOLIYATI VA UNING TARAQQIYOTI HAQIDA.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

Karamatova Xurshida

Ilmiy raxbar: **S.Komilov**

Annotasiya "Xorazmshoh Anushtegin sulolasi hukmdorlari siyosiy faoliyati" bo'lib, unda XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Anushteginlar sulolasining siyosiy va harbiy faoliyati tahlil qilinadi. Anushteginlar sulolasining asoschisi Anushtegin va uning avlodlari, xususan, Qutbiddin Muhammad, Takash, Alouddin Muhammad va Jaloliddin Manguberdi kabi hukmdorlarning davlat boshqaruvidagi yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari batafsil o'rganiladi. Ushbu maqolada Anushteginlar sulolasi hukmdorlarining siyosiy faoliyatini atroficha yoritadi va ularning Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq tarixidagi o'rni va ahamiyatini oolib beradi. Maqolada foydalanilgan asosiy manbalar va tadqiqotlar yordamida Xorazmshohlar davlatining siyosiy jarayonlari va tarixiy davrlarining xususiyatlari batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Xorazmshohlar, O'tror, mug'ul, Chingizzon, shajara, Alovuddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Takash, Qutbiddin Muhammad, Anushtegin.

Annotation: The abstract is "Political activity of the rulers of Khorezmshah Anushtegin dynasty", which analyzes the political and military activity of the Anushtegin dynasty, which ruled Central Asia in the XI-XIII centuries. The achievements and failures of rulers such as Anushtegin, the founder of the Anushtegin dynasty, and his descendants, particularly Qutbuddin Muhammad, Takash, Alauddin Muhammad, and Jalaluddin Manguberdi, are studied in detail. This article covers the political activities of the rulers of the Anushtegin dynasty and reveals their place and importance in the history of Central Asia and the Middle East. With the help of the

main sources and researches used in the article, the features of the political processes and historical periods of the Khorezmshah state were analyzed in detail.

Keywords. Khorezmshahs, Otrar, Mughal, Genghis Khan, family tree, Alovuddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Takash, Qutbiddin Muhammad, Anushtegin.

Абстрактный:- «Политическая деятельность правителей хорезмшаха Ануштегинской династии», в которой анализируется политическая и военная деятельность династии Ануштегинов, правивших Средней Азией в XI-XIII веках. Подробно изучены достижения и неудачи таких правителей, как Ануштегин, основатель династии Ануштегинов, и его потомков, в частности Кутбуддин Мухаммад, Такаш, Алауддин Мухаммад, Джалалуддин Мангуберди. В данной статье освещается политическая деятельность правителей династии Ануштегинов и раскрывается их место и значение в истории Средней Азии и Ближнего Востока. С помощью основных источников и исследований, использованных в статье, подробно проанализированы особенности политических процессов и исторических периодов государства Хорезмшахов.

Ключевые слова. Хорезмшахи, Отрап, Великие Моголы, Чингисхан, генеалогическое древо, Аловуддин Мухаммад, Jaloliddin Manguberdi, Takash, Qutbiddin Muhammad, Anushtegin.

Xorazmshohlar Davlati Shajarasi va uning tarixiy ahamiyati.

Xorazmshohlar davlati O‘rta Osiyo tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan kuchli va boy madaniyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Xorazmshohlar davlati asosan Anushteginiylar sulolasi tomonidan boshqarilgan va ularning hukmronligi davomida davlat o‘zining eng yuksak davrini kechirgan. Quyida Xorazmshohlar davlatining shajarasi va asosiy hukmdorlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Anushteginiylar Sulolasi (1077-1231)Xorazmshohlar davlatining eng yuksalgan davri hisoblanadi. Bu sulola Saljuqiylar davlatining xizmatchisi bo‘lgan Anushtegin G‘orcha bilan boshlanadi. Quyida sulolaning eng muhim hukmdorlari haqida ma’lumot keltiriladi: [1]

Anushtegin (1077-1097) turkiy kelib chiqishli quldir. U Saljuqiylar hukmdori Malikshoh I tomonidan Xorazm hokimi etib tayinlangan. Anushteginning hukmronligi davrida Xorazm Saljuqiylar davlatiga bo‘ysungan, ammo ichki ishlarida mustaqillikka ega bo‘lgan.

Qutbiddin Muhammad (1097-1127) Anushtegin o‘g‘li Qutbiddin Muhammad otasidan keyin taxtga chiqqan. Uning hukmronligi davrida Xorazm Saljuqiylar davlati tarkibida barqarorlikni saqlab qolgan[2].

Alovuddin Otsiz (1127-1156) Anushteginiylar sulolasining mustaqillikka intiluvchan hukmdorlaridan biri bo‘lgan. U Saljuqiylar davlati ichidagi ichki nizolardan foydalanib, Xorazmni mustaqil davlatga aylantirishga harakat qilgan. Otsizning davrida Xorazmshohlar davlati kuchaygan va kengaygan.

Takash (1172-1200) Anushteginiylar sulolasining qudratli hukmdorlaridan biri bo‘lib, Saljuqiylarning zaiflashuvidan foydalangan. Uning davrida Xorazm mustaqilligi mustahkamlanib, hududi kengaygan. Takashning muvaffaqiyatli siyosati tufayli davlatning iqtisodiy va harbiy qudrati oshgan.

Alouddin Muhammad II (1200-1220) Xorazmshohlar davlatining eng qudratli hukmdori hisoblanadi. U Movarounnahr, Xuroson, G‘arbiy Eron kabi hududlarni qo‘lga kiritgan va davlatning hududini juda kengaytirgan. Ammo uning davrida Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ullar Xorazmga hujum qilib, davlatning parchalanishiga sabab bo‘lgan[3].

Jaloliddin Manguberdi (1220-1231) o‘g‘li bo‘lib, mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib borgan. U o‘z jasorati va harbiy qobiliyati bilan tanilgan, ammo mo‘g‘ullar hujumlari natijasida Xorazmshohlar davlati yakuniy ravishda yemirilgan.

IX-XIII asrlar Xorazm tarixida alohida yuksalish davri bo‘lib, o‘z taraqqiyotining yangi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy bosqichlariga ko‘tarildi. Xorazm ham siyosiy va idtisodiy jihatdan mustaqil va qudratli davlat bo‘lib, Markaziy Osiyo, Eron va Shimoliy Hindiston davlatlari qatorida “Islom Uyg‘onish davri”ni boshidan kechirdi.

N.I.Konrad bu davrni tafakkur va fan sohasidagi inqilob deb atagan. 996 yilda shimoliy Xorazm amiri Ma'mun ibn Muhammad Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi, o'zini Xorazmshoh, Urganch shahrini Xorazmshohlar poytaxti deb e'lon qildi. Ali ibn Ma'mun vafotidan so'ng Xorazm taxtiga uning inisi Ma'mun ibn Ma'mun (999-1017) o'tirdi. U o'z davrining o'qimishli va madaniyatli kishisi bo'lgan. Uning saroyi qoshida Ma'mun Akademiyasi (Donishmandlar uyi) deb nom olgan ilmiy-madaniy markaz tashkil etilib, unda olamga mashhur allomalar, jumladan Al-Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Iroq, Ibn Hammar, Ibn Misvak kabi o'nlab yirik fan va madaniyat namoyandalari ijod qildilar. 1210 yilda Xorazmshoh Muhammad qo'shnlari Qoraxitoylarni tor-mor qilib, butun Movarounnahrni o'ziga qo'shib oldi. Ala ad-Din Muhammad o'zini Iskandari Soniy, deb atay boshladi va o'ziga "Ollohning yerdag'i soyasi" degan unvon berdi[4].

1217 yilga kelib Xorazmshoh g'arbda Iroqdan to Hindistongacha, shimolda Manqishloq va Orol dengizidan janubda to Hind okeani qirg'oqlarigacha bo'lgan hududlarni egallagan buyuk Xorazm imperiyasini yaratdi. U o'z ichiga Movarounnahrni, Iroqni, Mazandoron, Adran, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Karman, Makron, Qosh, G'azna, ja'mi 400 ga yaqin shahar va viloyatlarni olardi. Xorazm o'zining ko'p ming yillik tarixida hamisha mustaqillikka intilib yashagan, ba'zan unga erishgan ham. Uning keng va moviy osmonida goh quyosh yaraqlab, o'z shon-shuhratini butun dunyoga ko'z-ko'z qilgan bo'lsa, goh qora bulutlar qoplab, dahshatli yashin-chaqmoqlar uning bag'rini tilib nimtalagan, vayronaliklar girdobiga uloqtirgan. Chingizxondek dahshatli Jahongirni hayratda qoldirib, uning ham g'azabini, ham havasini uyg'otgan.

Najmiddin Kubro va Jalol al-Din (pir-ustoz va shogird)- larning mislsiz jasorati va insoniy fazilatlari ana shu davrdagi ma'naviy muhit mevalaridir. Lekin, ezgulik va yovuzlik hamisha abadiy jangda, yo birinchisi g'olib chiqadi yoki ikkinchisi. Bu hayot, qarama-qarshilik va ziddiyatlar qonunidir[5].

Chingizzon istilolari Xorazmda o'n etti yil davom etib, uni butunlay xarobazorga aylantirdi. Urganch, Kat, Xiva shaharlari bilan bir qatorda yuzlab viloyatlar, tuman-

shaharlar va qishloqlar kultepalarga aylandi. Mo'g'ullar hayvon qiyofasiga kirib, insoniylikka zid bo'lgan barcha qilmishlarini namoyish qildilar. Hozirgi Qo'shko'pir tumani hududlarida ham hayot-mamot janglari bo'lib, Go'zpishtagan, Tuproq qal'a, Ko'na qal'a va Gozovot kabi qo'rg'on shaharlar kunpaya-kun (tekislangan) qilindi. Ko'nazey qal'asi yonida mo'g'ullar bilan bo'lgan og'ir janglardan keyin dunyoga kelgan "Kallalik" qabristoni ana shu sharmandali vahshiylilikning qonli izlaridir.

Xulosa. Xorazmshohlar davlati tarixda o'zining buyuk hukmdorlari va madaniy merosi bilan katta o'rin tutadi. Anushteginiyalar sulolasiga davrida davlat o'zining eng yuksak davrini boshidan kechirgan va hududiy jihatdan kengaygan. Ushbu sulolaning hukmronlari davlatni mustahkamlash va kengaytirishga katta hissa qo'shgan. Xorazmshohlar davlatining boy tarixi O'rta Osiyo xalqlari tarixinining ajralmas qismidir va bu meros hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik kabi o'nlab xalq qahramonlari Xorazm tarixinining oltin sahifalarini bezaganlar va xalqimiz xotirasi - abadiyatdan joy olganlar. Xorazmshohlar saltanatining shonli sahifalari uning buyukligidan, qonli sahifalari esa uning fojialaridan dalolatdir. Chingizzxon avlodlari Xorazmda XIII asr oxirlarigacha hukmronlik qildilar. Xorazm XIV asrning 70-yillaridan to XVI asrgacha (130 yilga yaqin) Temuriylar hukmronligi ostida bo'ldi.

Foydalangan adabiyotlar

- 1.A.S. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" Toshkent-2021.492-494.
- 2.B.Eshov "O'zbek davlatchiligi tarixi" 2014
- 3.Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi" Toshkent-Sharq-2000.